



**TRANSLATION PROBLEMS OF SLANGISMS IN ENGLISH AND UZBEKI IN
DIFFERENT DISCOURSES**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10079811>

Sevara Azimova is the daughter of Abdullah

Teacher of Andijan State Institute of Foreign Languages

ABSTRACT

This article is devoted to the problems of translation of slangisms in English and Uzbek languages in different discourses. Youth slangisms are the most rapidly developing and changing segments of the modern English language. Youth slang allows people to communicate on a completely new level, without using traditional devices and grammatical bases. Slangism opens the door to a better understanding of the culture and mentality of the language being studied. Because, in a simple colloquial speech, one can witness words and phrases that are far from formality, seriousness and pretentiousness. This means that it is necessary to pay attention to various discourses composed of slangs.

Key words

slangism, young people, Internet slangs, linguistic culture, equivalent, synonymy.

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SLENGIZMLARNI TURLI DISKURSLARDA
TARJIMA MUAMMOLARI**

Sevara Azimova Abdulla qizi

Andijon Davlat Chet tillari Instituti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola Ingliz va O'zbek tillarida slengizmlarni turli diskurslarda tarjima muammolariga bag'ishlangan. Yoshlar slengizmlari zamonaviy ingliz tilining eng tez rivojlanayotgan va uning segmentlarini o'zgartirayotgan unsuri hisoblanadi. Yoshlar slengi odamlarga mutlaqo yangi darajada, an'anaviy qurilmalardan va grammatik asoslardan foydalanmagan holda muloqot qilish imkonini beradi. Zotan, slengizm orqali o'rganilayotgan til madaniyati va ruhiyatini yaxshiroq tushunishga imkoniyatlar eshigi ochiladi. Chunki, sodda so'zlashuv nutqida rasmiyatchilik, jiddiylik va takallufdan yiroq bo'lgan so'z va iboralarning guvohi bo'lish mumkin. Bu esa slenglardan tarkib topgan turli diskurslarga e'tiborni qaratish lozim ekanligini bildiradi.

Kalit so'zlar



slengizm, yoshlar, internet slenglar, lingvokulturologiya, ekvivalent, sinonimiya.

Nutqni jarayon sifatida o'rganish faqat muloqot – diskurs (fikir almashtirish) doirasida tadqiq etilishi mumkin. Shu bois, XX asrning oxirlarida tilshunoslikning yangi bir tarmog'i – diskursologiya nutqiy muloqotni tadqiq etuvchi fan sifatida shakllandi[1]. Slengni o'rganishda, avvalo, uni turli diskurslarda (badiiy, reklama, ommaviy axborot vositalari va og'zaki nutqda) ahamiyatini o'rganish va til tizimi sifatida slengning rivojlanishidagi asosiy tendentsiyalarni aniqlash lozim. Bu orqali uning funktsional xususiyatlari, slengizmlarning o'rni va ikkilamchi matnlarda semantik imkoniyatning mohiyati, uning lingvopragmatikasini tushunish, sleng tushunchasini asoslashga nazariy yondashuvlar va uning madaniyatlararo rivojlanish istiqbollari bayon qilinadi[2].

Ingliz tilidagi I am tired jumlasini o'zbek tilida Men charchadim deya tarjima qilsak, unda juda charchadim yoki holdan toydim jumllarini I am very tired yoki I am exhausted ifodalariga tenglashtiramiz. I am knackered sleng-frazemasini esa o'zbek yoshlari nutqida to'kilib qoldim iborasi bilan ifodalasak, bizningcha, ingliz va o'zbek tillaridagi slenglar mos ekvivalentiga ega bo'ladi:

I'm knackered today // Men bugun to'kilib qoldim

Tilshunoslikda espressivlik til birligining aloqa-aralashuv jarayonida so'zlovchining nutq mazmuniga yoki nutq qaratilgan shaxsga nisbatan sub'yektiv (ijobiy yoki salbiy) munosabatining ifoda vositasi bo'la olishini ta'minlaydi. Inson holatini ifoda etishda salbiy ekspressivlikka ega sleng o'zaro hazil-kinoyaga xizmat qilib, qo'pollik elementlaridan yiroqdir. Masalan: Uning jahli chiqyapti yoki Uning asabi qo'ziyapti jumllarini yoshlar tilida U tutayapti shaklida uchratish mumkin. Ushbu slengizmning ingliz tilidagi ekvivalentini topishga harakat qildik:

Uning jahli chiqdi; Uning jahli chiqyapti // She is angry // She becomes angry; She is annoyed; She gets annoyed.

U asabiylashdi; Uning asabi qo'ziyapti // She is nervous; She is getting nervous.

Uning achchig'i chiqdi; Uning achchig'i chiqyapti // She is agitated; She gets agitated.

Uning joni chiqdi; Uning joni chiqyapti // She is furious; She gets furious.

U tutayapti (sleng) // She goes bananas (slang).

Yana o'zbek yoshlari orasidagi suhbatlarga e'tibor qaratsak: -Nega fanta ichmayapsan? -Morojnaga fanta o'tirmedi, kola o'tiradi (So'zlashuvdan). Ushbu gapda ifodalangan o'tirmoq fe'li butunlay o'zga ma'noda qo'llanilib, mos kelmoq ma'nosini anglatmoqda. Yoshlar nutqida sleng sinonimiyasi ham kuzatilib, o'tirmoq slengi aytmoq slengi bilan ham almashtirilishi



mumkin: Morojnaga fanta aytmaydi, kola aytadi. Yoki: Bu oyoq qiyimga bu ko'ylak aytmadi, boshqasini tanlaymiz (So'zlashuvdan). Yana bir urf bo'layotgan sleng "yoqmoq" bo'lib, uning bir necha ko'rinishlari mavjud. Uning ijobiy semali ko'rinishlari shunday: Bugun donolikni yoqvoldim. Aqllini yoqvoldim. Mullani yoqvoldim. Masalan:

- Bugun aqllini yoqvolibsanni, deyman-ov?

- Ha, bugun donolikni yoqib rosa darsda javob berdim. Hamma qoyil qoldi (So'zlashuvdan).

Til egasi sleng orqali nutqning ta'sirchanligini ta'minlash, o'z tengquriga hazil aralashtirib, biroz maqtanish va boshqalardan ajralib turish kabilarga erishgan. Tabiiyki, atrofdagilar ko'z o'ngida jarangli ifoda yangragani sabab, yoshlar ana shunday ifodalarni tez o'zlashtiradilar va dialogni so'z o'yinidek davom ettiradilar. Adresatning qaytargan javobida, aynan biz aytib o'tgan slengga xos xususiyat yaqqol aks etganini ko'rishimiz mumkin. Birinchi suhbatdosh qo'llagan aqllini yoqib sleng-frazemasi ikkinchi suhbatdoshda donolikni yoqib ko'rinishida qo'llangan. Shu tarzda foydalanuvchi fantaziyasi bilan slengda sinonimiya ortib boraveradi. Boshqa tomondan esa antonim sleng hosil bo'lishi ham mumkin. Masalan: - Hammani ichida savolga javob berolmay, tentaklikni yoqvolding-a? Men buni sezdim.

- Nega dovdirlilikni yoqyapsan, bilasanku javobni, tezroq ayt.

Demak, ushbu misollarda biz yuqorida berib o'tgan YoSning to'rt asosiy vazifalari (kommunikativ, nominativ, kognitiv, emotsional-baholovchi)ni yaqqol kuzatish mumkin.

Tasviriylik va hissiylik badiiy matnning asosiy xususiyatlaridandir. Chunki yozuvchi tabiiy va ijtimoiy borliqqa nisbatan erkin munosabatda bo'lib, shu borliqning mohiyatini ochib ko'rsatish maqsadida turli-tuman lug'aviy birliklar, badiiy obrazlar, adabiy tilning tasviriy vositalari va nozik qirralaridan to'liq foydalanadi[3]. Shu qatori slenglar ham badiiy matnni hosil qilishda, asar mazmunini kitobxonga jonli, ekspressiv tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Shuningdek, badiiy asar tilida ma'lum badiiy-estetik holatni shakllantirish va muallif his-tuyg'usining o'quvchiga to'liq yetib borishi uchun, qahramon sajiyasini kitobxon ko'z oldida yaqqol gavdalantirish maqsadlariga ham xizmat qiladi. Biz o'zbek adabiyoti namunalarida slenglarning bir necha ko'rinishlarini uchratdik. Masalan, o'zbek adabiyotining taraqqiyotida ulkan hissa qo'shgan O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik qalamiga mansub "Alvido, bolalik" asari o'sha davrda ishlatilgan slenglardan holi emasligi aniqlandi: - Maladessan-da, boss, ketvorgan bolasan. Ertaga yigirma beshni beraman.- Qanaqa yigirma besh?-Yig'ishyapti-ku? To'yga...sen aytuvmiding? (Tohir Malik. Alvido bolalik. 16) Ushbu gapda



ishlatilgan “ketvorgan” slengi “zo‘r, aqlli” ma‘nolari o‘rnida, xabarni bo‘rttirish, emotsional-ekspressiv baholash kabi maqsadlarini ko‘zlagan. Adib o‘sha davr yoshlari ega bo‘lgan xususiyatlarni asarda yoritib berish maqsadida slengga murojaat qilgan. Bunga yana bir misol, Bunaqa gaplarga Zoir usta, qotirib tashlaydi. Umuman, baxtli bola u (T.Malik. Alvado bolalik. 17). Muallif “qotirib tashlaydi” slengi bilan gapga chechanlik, so‘zga ustalik xislatlarini ifodalagan. Ayni kunda ushbu sleng o‘rnini yuqoridagi misollarda berib o‘tilgan “yorvormoq, chachvormoq, qiyvormoq, sindirvormoq” slenglari egallab, gapni yorvoradi / chachvoradi / qiyvoradi / sindirvoradi ko‘rinishida kelishi mumkin. O‘sha davrda qo‘llanilgan ushbu sleng hozirda yoshi kattalar nutqida ham uchrab, bizningcha, YoSdan USga o‘tgan. Adibning keyingi komik asarlarida yoshlar tilidan ushbu so‘z yana ham boshqacha talqinda jaranglashini kuzatishimiz mumkin: - Dogovor bitta bo‘lsa ham u nomardlar ikkita qo‘shimcha savol berishdi. Rosayam qiyin ekan. Ammo qiyib tashladim. Churq etolmay qolishdi, - Dumbultoy kommissiya a‘zosining savoliga bergan javobini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligiga o‘zi ham gumonda edi. (Tohir Malik. Tilginamdan aylanay, 43).

Bugungi kunda Amerika va Angliya jamiyatini slenglarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Sleng ommaviy axborot vositalari bosh sahifasi va maqolalarining tilida faol hisoblanadi. Bu slenglarning kundalik so‘zlashuv tiliga qanchalar singib ketganini tushunishimiz mumkin. Komp’yuterlar, jurnallar, gazetalarning ta’siri, jumladan yosh internet foydalanuvchilari, muxbirlar, yozuvchilar, muharrirlar slenglar yaratilishi va kundalik nutqda hukm surishiga sabab bo‘ladilar[4].

Shunday qilib, ingliz tilida faol internet slenglari quyidagilar: cybrarian (cyber+librarina), cyberpunk (a nonconformist advocate of modern technology, esp. such a user of the Internet), videorazzi (celebrity-chasing photographers with video cameras), walkie-talkie (a portable two-way radio), tailgating (driving too close behind antoyher vehicle), wager (a waste-paper basket), puppy-hole (a pupil-room, in which pupil work with their tutors), yobbo-a modern teddy boy va h.k.

Ijtimoiy tarmoqlar internet slenglarining yaralish va tarqalish o‘chog‘i desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Demak, “komp’yuter” tematikasi yoshlarga xos bo‘lib, ular jamiyatning ijtimoiy tarmoq orqali virtual kommunikatsiyaga kirishuvchi vakillari hisoblanadi. Yoshlar tilini tushunish yoki o‘z tengdoshini tushunish zarurati beixtiyor slenglarni o‘rganishga stimuly beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Safarov Sh., Toirova G. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: SamDChTI, 2007. – B.10.



2. Makarova Ye.S. Ko'rsatilgan manba. – S. 127-128.
3. Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – T.: O'qituvchi, 1995. – B. 5.
4. Morozova Ye.S., Kurakina J.V. Ko'rsatilgan manba. – B. 62-73.
5. Alisherovna, S. N. (2023). SEMIOTICS IS THE SCIENCE OF SIGNS AND SIGN SYSTEMS. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 2(14), 29-31.
6. Qodirov, X. (2023). AI IN TRANSLATION: BENEFITS, CHALLENGES, AND THE ROAD AHEAD. Лучшие интеллектуальные исследования, 6(2), 122-126.
7. Abdulazizov, D., Ganiyeva, T., & Sharobiddinova, O. (2023, May). Materials for teaching culture: regalia, films, sign. In International Conference on Multidisciplinary Research (Vol. 1, No. 2, pp. 37-40).